



ZULFIYA IJODIDA BADIY ODAM TALQINI

O'ringaliyeva Nurjayna O'razgaliy qizi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar 37-umumta'lim maktabining 11- sinf
o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoira Zulfiya she'riyati haqida ma'lumot beriladi. Shoira Zulfiya she'rlarining mavzu ko'lami, obrazlar olami tahlil qilinadi. Shuningdek, shoira Zulfiyaning poetik timsol yaratish mahorati she'rlari tahlili orqali oy dinlashtiriladi. Zulfiya she'rlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, she'rlarining ruhi va oh angini, mazmuni va yo'nalishini, avj pardasini, maqsad, g'oya va ideallarini umum insoniy fikr va tuyg'ular belgilaydi. Shu ma'noda, Zulfiya ijodining haroratini ta'min lagan omil ham undagi jo'shqin va faol insonparvarlik, poetik timsol, go'zal tuyg'ulardan olamidir.

Kalit so'zlar: ijod, asar, obraz, timsol, tabiat, manzara, kechinma, sevgi, borliq, tasvir

Zulfiya ijodi, u yaratgan poetik asarlar hozirgi o'zbek she'riyatida muayyan ahamiyatga molikdir. Shoira Zulfiya ijodida xotin-qizlar mavzusining ko'p jihatlari teran yoritilishi, sevgi va hijron motivlarining haqqoniy badiiy tadqiq etilishi, tinchlik, xalqlar do'stligi g'oyalarining ancha ta'sirchan tarannum etilishi tahsinga sazovor. Ma'lumki, Zulfiya tomonidan yaratilgan asarlarda realistik tasvir tamoyillari kuchayganligi hamda poetik obrazlar olami kengayganligini ko'rsatadi. O'zbek adabiyots hunosligining dolzarb muammolaridan biri san'atkorning o'ziga xos, betakror badiiy olamini o'rganish bo'lib, bu masalaning teran atroflicha tadqiq qilinishi yozuvchining individual mahoratini ko'rsatishga, uning adabiyotimiz taraqqiyotidagi o'rnnini belgilashga xizmat qiladi. Zulfiyaning poetik fikrlash tarzini jiddiy o'rganish, uning asarlardagi obraz va obrazlilikning tabiatini, xarakterini yana ham to'laroq ochish o'zbek she'riyatidagi katta bir turkum asarlar mohiyatini tushunishga imkon beradi.

Zulfiya ijodida o'zbek ayolining taqdiri muhim o'rinni egallaydi, uning mamlakat hayotidagi faol o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Zulfiya she'riyati tabiatga hamda uning ajralmas qismi va yuqori cho'qqisi bo'lmish odamzotga nisbatan hayajonli sevgi bilan burkangan. Uning she'rlarida tabiat och ranglarda, yorqin bo'yoq va tim sollarda gavdalanadi. Shoira go'zal hayotning muayyan tomonini badiiy tadqiq qilar ekan, u asosiy e'tiborini inson qalbida kechayotgan ziddiyatlar, tuyg'ular tovlani shini ifodalashga qaratadi. U inson ruhiy olamini rang-barang ko'rinish vaziyatlardan badiiy tadqiq etib, shu orqali uning yaratuvchilik, bunyodkorlik hamda borliqdagi barcha sodir bo'lgan, bo'layotgan voqealarga mas'uliyat hissini oshirishga intiladi. Shu jihatlari bilan shoira Zulfiya Hamid Olimjon she'rlaridagi ba'zi poetik ifodalarni lirik tasvir yo'nalishiga singdirib yuboradi:

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



Kecha jimjit: ko'p go'zal kecha,
Qaraysan-u suqing kiradi.
Yonadi gul, jilmayar g'uncha,
Yellar g'ir-g'ir esib turadi.

Zulfiyaning oliyjanoblik, jasorat, haqqoniy xalq g'ururi, tabiat va insonga nisb atan samimiy tuyg'ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirkasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka bo'lga n ishonchini mustahkamlaydi. Zulfiyaning butun she'riy ijodi — O'zbekiston diyori ning ilhom madhiyasi, inson mehnati madhiyasi, sevgi va yerdagi adolat uchun m adhiyasidir. Zulfiyaning qoyilmaqom ijod mehnatiga ko'p yillar bo'ldi, respublika h ayoti va uning xalqi taqdirida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi, lekin "sevgining alang ali kuchi" bugun ham o'quvchining qalbini isitadi, yuragini va ongini hayajonlantira di. Mevaning toti u yetishgan og'ochga qanchalik bog'liq bo'lsa, ijodkorning bitga nlari uning shaxsiyatiga ham shunchalik aloqadordir. Sobiq sho'ro davridagi ijodk orlar orasida Zulfiya she'riyati shu jihatdan, ayniqsa, ajralib turadi. Uning nozik chi zgilar, go'zal tashbihlar bilan bir vaqtida "inson ruhiyatini g'ajib tashlay oladigan" a yriliqdan tug'ilgan tiyiqsiz iztirob, taqdirning notantiligiga isyon aks etgan lirkasi sh oira shaxsiyati va ruhiyatidagi inja manzaralardir, deyish mumkin. Zulfiya ijodida h ijron, sadoqat to'g'risidagi she'rlar salmoqli o'rin egallaydi. Bu – tabiiy hol. Negaki, u o'zining ikki kishi uchun yashagan uzoq umri davomida ayriliqning ellik ikki yillik yo'lini bosib o'tib, hijron kuychisi va sadoqat timsoliga aylandi. Shoiraning nihoyas iz ayriliqning hasratlari aks etgan she'rlarida badbinlik, umidsizlik, noshukurlik, so'ngsiz qayg'uga asirlik tuyg'ulari yo'q. Uning hijronzada she'rlarida suyguvchi, suy gani bois ayriliqdan qattiq kuyguvchi, ammo hayotdagi yorug'liklarni ko'ra olguvch i va ko'rorganiga shukronalik qilguvchi shoira ayol sezimlari aks etgan. Zulfiyaning mashhur "Bahor keldi seni so'roqlab" asarida uning hijron mavzusidagi barcha bo shqa she'rlaridagi kabi kuchli dard, chegarasiz hijron aks etgan. Ulkan insoniy ala m, o'kinchning she'rga yo'g'irilgan samimiy ifodasi she'rxonning ko'nglini titratadi. Chunki titragan ko'ngilning manzarasi o'qirman ruhiyati va hissiyotini ham titratish i tayin. She'rda ifoda etilgan shoira, bahor, yel timsollarining bari sog'inch dardiga mutbalo. Ularning uchalasi ham o'rik gullariga maftun bo'lib, bahor yellarini "baxti m bormi deya" so'roqqa tutgan, shoirani-da, bahorni-da, yelni-da yaxshi ko'rgan ji ngala sochli xayolchan yigit Hamid Olimjonni birday sog'inishgan. Bu dard uch qa yg'ukashni bir-biriga yaqinlashtiradi, ularni bir-birini suyashga, bir-birini tuyishga u ndaydi. Birinchi to'rtlik mazmun-mohiyati bilan she'rga kirish vazifasini o'taydi. Liri k qahramonning atrofidagi hamma narsa bahor qaytib kelganidan darak beradi. Tabiat marhamatli, unda fasllar aylanib kelaveradi. Ko'klam go'zalligiga burkangan olam –to'kis. Unda bultur bor bo'lgan narsalarning deyarli barchasi bu yil ham ma vjud. Lekin lirk qahramon, bahorning o'zi va sarin yel uchun olam to'kis emas. Ul ar kimnidir qidiradi, topgisi keladi. She'rning ikkinchi bandida lirk qahramon izlayso



tgan odamining tabiatini qandayligini tuydirishga diqqat qaratiladi:

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergen kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Zulfiya lirikasi teran tafakkur va jo'sh qin hissiyot vobastaligidan hosil bo'lgan she'riyatdir. Shoira lirk qahramoni ko'pda yuksak intellekt sohibasi ekanligi sezilib turadi. U biroz o'ychan, ba'zan falsafiy, b a'zida esa jiddiy va ta'sirchan. Shoira ma'naviy-ruhiy izlanishlarida, poetik timsol y aratish jarayonida his-tuyg'ular manzarasi, kechinma tarangligi, o'tkir dramatik va ziyat va kolliziylar bo'rtib turadi. Unda makon va zamon chegarasining qamrovali keng, o'tmish, bugun va kelajak voqeligi inson taqdiri, ertasi bilan tasvirlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov N.Zulfiya. Ma'rifiy biografik asar. – T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
2. Umurova G. (2014). Shoira Zulfiyaning badiiy olami. Monografiya. Toshkent, "Navro'z", 156 b.
3. Umurova G. (2018). Zulfiya lirkasida tuyg'ular tadriji // Xorijiy filologiya. –
4. Samarqand, 4(4), B.83-88.
5. Umurova G. (2017). Zulfiya badiiy mahoratining ba'zi qirralari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 5(5), B.85-90.
6. Zulfiya. Adabiy o'ylar. – Toshkent: "Fan", 1985.
7. Zulfiya. Tong bilan shom aro. Saylanma. – Toshkent: SHarq, 2006. 168 -b.
8. Mahmudova D. Halima.esse-qissa. Toshkent, "O'zbekiston", 2016.
9. G'afurov I. Zulfiya siymosi // Sharq yulduzi, 2015, №1. – B. 114-120.
10. Sharafiddinov O. Sizni sog'indim, Zulfiya opa! – Ijodni anglash baxti. – T., Sharq, 2004.
11. Hojieva O. To'rt tanho.Toshkent, "O'zbekiston", 2013.